

ABU JA'FAR IBN JARIR TABARIY TAFSIRINING AHAMIYATI VA AQIDAVIY  
OYATLARNI SHARHLASHDAGI O'ZIGA XOSLIK

**Asadullayeva Durdona Shuxratilla qizi**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*"Islomshunoslik" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Abu Ja'far ibn Jarir Tabariy o'rta asrlarda yashagan mufassir, muarrix, mujtahid sifatida tanilgan alloma bo'lib, uning ko'plab asarlari orasida o'ziga xos shuhrat qozongan asari bu "Jomiul bayon fiy ta'vil ayatil Qur'on"dir. Bu asar Qur'onga yozilgan tafsir hisoblanib, tafsir sohasida eng ko'p e'tirof etiluvchi manbaa sifatida tilga olinadi. Ushbu maqolada "Jomiul bayon an ta'vil ayatil Qur'on" tafsirining yozilish tarixi, uslubi, manbaaviy asoslari tahlil etildi.*

**Kalit so'zlar:** *Tabariy, mujtahid, muarrix, mufassir, tafsir, ta'vil, hadis, isroiliyot, rivoyat, zaif, hasan, sahih.*

Ahli sunna val jamoa ulamolari keng foydalangan naqliy tafsirlar orasida "Tafsiri Tabariy" nomi bilan mashhur bo'lgan "Jomiul bayon fiy ta'vil ayatil Qur'on" asari muallifi bo'lgan, mujtahid, mufassir olim Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir ibn Yazid ibn Kasir ibn G'olib ibn Tabariy 224/839-yilda Eronda tavallud topgan. 236/851-yillarda Bog'dod, Ray, Kufa, Basra kabi ko'plab yurtlarga ilm talabida safarga chiqdi. Bu zot mufassir, muarrix va faqih sifatida tanilib, "Mufassirlar imomi" laqabini olgan.

Ibn Jarir Tabariy o'z zamonasining eng taniqli olimlaridan biri bo'lib, mufassir, muarrix va faqih sifatida tanilib, "Mufassirlar imomi" unvoniga sazovor bo'lgan. Ko'plab olimlar Abu Ja'far ibn Jarir Tabariyning yuksak ilm sohibi sifatida e'tirof etib, Qur'on hofizi hamda uni chuqur tushungan, hukmlarini yaxshi bilgan, Payg'ambar s.a.v sunnatlarini, uning sahih va zaifini, roviylarining ishonchli yoki ishonchsizini yaxshi ajratadigan, tobeinlarning orasidagi muxoliflarini ham farq qiladigan o'ta farosatli, ma'rifatli, o'tkir fikrli olim ekanini ta'kidlab o'tishgan. Xatib Bag'dodiy ibn Jarirga "ziyrak olim" deb, quyidagicha ta'rif beradilar: "Alloh taoloning kitobini yodlagan, qiroatlar bilan tanilgan, ma'nolarini tushungan, Qur'on ahkomlarida faqih, Rasullulloh s.a.v.ning sunnatlariga amal qilgan va unda qoim bo'lgan, nosix va mansux ilmini, sahoba va tobeinlarning qavlini chuqur tushungan "faqih olim" deb e'tirof etgan<sup>54</sup>.

Tabariy fiqh va tarix ilmlarini mukammal egallab, Qur'on, hadislar bo'yicha arab tilida 20 dan ortiq asarlar yozgan. Qur'oni karim tafsiriga bag'ishlangan "Jomiul bayon fiy ta'vil ayatil Qur'on" asari uni musulmon olamiga tanitgan.

Tabariy tafsiri 30 juzdan iborat bo'lib, bu tafsir avval yo'qolgan va yaqin vaqtgacha topilmagan edi. Navaviy Tabariy haqida shunday yozadi: "Uning tarixga oid mashhur kitobi va tafsiri borki, undek hech kim yozmagan keyinchalik mazkur

<sup>54</sup>Rahimjonov D. Tafsir matnlari. 1-qism: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 76.

tafsirning mukammal qo'lyozmasi topilgan va kitob holiga keltirildi. Ibn Jarir tafsirlari haqidagi fikrlarga e'tibor bersak, islom ulamolarining hammasi bu tafsirni yuksak baholab, har qanday mufassir tafsir sohasida asar yozishidan avval "Jomiul bayon an ta'vil ayatil Qur'on" ni mutolaa qilmasa maqsadi hosil bo'lmasligini aytganlar. Imom Suyutiy r.a mazkur tafsir haqida: "Tafsirlarning eng ulug'i-Muhammad ibn Jarirning tafsir kitobi. Sababi unda tarjihot, erob va istinbot mavjud bo'lib, shu jihatlari bilan avvalgi tafsirlardan ajaralib turadi". Hatto Imom Navaviy ham: "Tabariy tafsirlaridek boshqa tafsir yozilmaganiga ulamolar ittifoq qilganlar",-deya Jarir tafsiriga tan bergan. Abu Xomid Isfaroyiniy : "Agar biror kishi Tabariy tafsiridan ortiqrog'ini topaman deb Xitoygacha borsa ham, bu safar uning uchun ko'p emas", - degan. "Lisonul mezon" asari muallifi shunday rivoyat qiladi: "Ibn Huzayma ibn Jarirning tafsirini ibn Holuyadan so'rab oladi va bir necha yildan keyin omonatni egasiga topshirayotib, shunday deydi: "Men ibn Jarirning tafsirini boshidan oxirgacha ko'rib chiqdim va amin bo'ldimki, yer yuzida ibn Jarirdan olimroq odam yo'q ekan".

Tabariy tafsiri naqliy tafsirlar orasida tutgan o'rni beqiyosdir, shu bilan bir qatorda yana bir e'tiborli jihati shuki, Qur'on oyatlarning deyarli har biri ko'plab hadislar bilan yoritilgan<sup>55</sup>.

Tafsirda mutashobih oyatlar bayonida o'ziga xos uslub qo'llanilgan bo'lib, xususan, Qur'onda bayon etilgan nomai a'mol (amal daftari) xususida "Inshiqoq" surasi 10-oyatida quyidagicha bayon etiladi:

وَأَمَّا مَنْ أُوتِيَ كِتَابَهُ وَرَاءَ ظَهْرِهِ.

"Ammo, kimning nomai a'moli orqa tomonidan berilsa <sup>56</sup>".

1. Ushbu oyatni tafsir qilishda Tabariy oyatning mazmunini yaxshi tushunishga xizmat qiluvchi sahih, hasan va zaif hadislardan foydalanib, qisqa sharhlarga to'xtalib o'tgan. Misol uchun: "من نوقش الحساب هلك"<sup>57</sup>.

2. Oyat tafsirida o'ng tomonidan amal kitobini oluvchilar-jannat ahli sifatida, chap tomon egalari esa, do'zax ahli sifatida izohlanadi.

Nomai a'mol (amal daftari)ga oid aqidaviy oyatlar sharhida ushbu masalaga oid qavllar, hamda oyatni oyat bilan sharhlangan. Shuningdek, ahli ta'vilning fikrlarini umumlashtirilgan holatda tafsirga xulosa berilgan. Ba'zi o'rinlarda isroiliyotlardan foydalanilgan<sup>58</sup>;

Xulosa qilib aytganda, Muhammad ibn Jarir Tabariy asarda Qur'on oyatini Qur'on oyati bilan, Qur'on oyatini hadis va sahobiyalar so'zlari asosida, ba'zi o'rinlarda, Ahli kitoblarga oid oyatlar tafsirida isroiliyot rivoyatlaridan keng istifoda etadi. Ibn Jarir Tabariy har bir rivoyatini roviylar sanadi bilan keltirsa ham, aksar hollarda

<sup>55</sup>Maxsudov D.R. Tafsir ilmiga kirish. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Qaqqus» nashriyoti, 2019. – B. 186

<sup>56</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasini. – T. TIU, 2001. – B. 589.

<sup>57</sup> Abu Ja'far Muhammad Ibn Jarir at-Tabariy. Jomiul bayon an ta'vil oyil Qur'on. – Bayrut: Dorul fikr, 1975/1395.

<sup>58</sup> 19. Vagda, G. (1973). "Isrā'iliyyāt". [Encyclopaedia of Islam](#). Vol. 4 (2nd ed.). Brill Academic Publishers. pp. 211–212. ISBN 9004057455

"Isroiliyot" so'zi, yahudiylardan rivoyat qilingan ma'lumotlarni bildirsa ham, biz bu yerda umumiyroq ma'noda, ya'ni yahudiy va nasroniylardan rivoyat qilingan asarlarni nazarda tutamiz

roviylarning sahih yoki zaif ekanligi to'g'risida ma'lumot keltimagan. Shunga qaramasdan, Ibn Jarir Tabariy ba'zi o'rinlarda o'zining o'ta talabchang ekanini namoyon etadi. Hususan, roviylarning adolati va ba'zi nuqsonli jihatlarini ochiq bayon etib, inshonchsiz rivoyatlarning tanqid qilib, o'zining fikr mulohazasini bildirib o'tadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasini. – T. 2001. – B. 624.
2. Abu Ja'far Muhammad Ibn Jarir at-Tabariy. Jomiul bayon fiy ta'vil Qur'on. – Bayrut: Dorul fikr, 1975/1395. I-XII.
3. Rahimjonov D. Tafsir matnlari. 1-qism: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – 180 b.
4. Rahmatulloh qori Obidov. Qur'on va tafsir ilmlari fanidan o'qiladigan ma'ruzalar matni // «Toshkent Islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2003.
5. Maxsudov D.R Tafsir ilmiga kirish. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Qaqnus» nashriyoti, 2019. – 186 b.
6. Vagda, G. (1973). "Isrā'īliyyāt". Encyclopaedia of Islam. Vol. 4 (2nd ed.). Brill Academic Publishers. pp. 211–212. ISBN 9004057455